ANDIJON VILOYATI ASAKA TUMANI HOKIMINING

QARORI

2026-yil 11-aprel | 75-1-17-Q/26 | Asaka tumani hokimligi

Asaka tumanida bo‘sh turgan barcha turdagi bo‘sh turgan yer uchastkalarini davlat yer kadastrida bo‘sh turgan yer uchastkalari sifatida hisobga olish va davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 24-avgustdagi “Mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo‘l qo‘ymaslik, xususiy mulkning kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-198-sonli Farmoni,O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 12-sentabrdagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda mahsulot yetishtirishning uzluksizligini ta’minlash va yerdan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-172-son Farmoni ijrosini ta’minlash,O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 6,24-moddalari hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6 va 10-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Davlat kadastrlari palatasi tumani filiali (I.Sherov)ning 2026-yil 10-apreldagi taqdim etgan ma’lumotiga asosan egalikda bo‘lmagan bo‘sh turgan yer uchastkalarini, bo‘sh yer uchastkalari sifatida xisobga olish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

2. Tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari - tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i (A.Matkarimov), Davlat kadastrlar palatasi tuman filiali (I.Sherov), Kadastr agentligi tuman bo‘lim (N.Axmadjonov)lar ilovaga muvofiq:

2 ish kuni muddatida yer uchastkalari bo‘sh turgan yer uchastkalari sifatida hisobga olsin, yer hisobotiga tegishli o‘zgartirishlar kiritilishini;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 12-sentabrdagi PF-172-son Farmoni talablari asosida bo‘sh turgan yer uchastkalarini 5 kun muddat elektron auksion savdolariga chiqarilishi ta’minlansin.

3. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari (O.To‘xtasinov), Davlat kadastrlar palatasi tuman filiali (I.Sherov) Kadastr agentligi tuman bo‘limi (N.Axmadjonov)lar belgilansin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari (A.Matkarimov) zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **N.N.Mo‘minov**

Asaka tumani hokimining
2026-yil 11-apreldagi
75-1-17-Q/26-son qaroriga
1-ilova

Ilova

Asaka tumanida bo‘sh turgan barcha turdagi bo‘sh turgan yer uchastkalarini davlat yer kadastrida bo‘sh turgan yer uchastkalari sifatida hisobga olinadigan va davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladigan yer maydonlari ro‘yxati

№	Hudud nomi	Kontur raqami	Jami yer maydoni, ga	shundan,			
				sug‘oriladigan	yaylov	lalmi	boshqa yerlar
1	Sharq haqiqati	502q	0,25	0,25			
2	G‘alaba massivi	242q	1,00	1,00			

2	jami	2	**1,25**	**1,25**			